

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi 26 490,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 foizga teng bo'ldi.

2021-yil yanvar-iyun oylarida YaHM deflyator indeksi 118,1 foizni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)** - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.


Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 024,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 foizga yuqori bo'ldi.

### Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2020-yil	2021-yil	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>21 290,2</b>	<b>26 490,6</b>	<b>105,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 979,7	25 983,5	105,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	310,5	507,1	105,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>20 979,7</b>	<b>25 983,5</b>	<b>105,3</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 621,4	3 310,9	101,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	15 644,1	19 484,4	105,9
sanoat	14 866,1	18 549,7	106,1
qurilish	778,0	934,7	103,4
Xizmatlar	2 714,2	3 188,2	105,9

	<i>mld. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	568,0	675,3	105,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	349,1	431,7	111,8
boshqa xizmatlar	1 797,1	2 081,2	104,9

**Yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)  
2020-yil**




## 2021-yil



2021-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir sanoat (106,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari (111,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (105,4 %), boshqa soha xizmatlari (104,9 %) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri keldi.

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 24,9 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2020-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 0,1 foizga kamaydi.

**2021-yil yanvar-iyun oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi (% da)**



**Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o‘shish sur‘atlari**

